

**JAMOAT TARTIBINI SAQLASHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING
FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-INSTITUTIONAL ASOSLARINI
TIZIMLI TAHLILI**

Zokirov Farhod Sobirjonovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22673330>

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda jamoat tartibini saqlashda ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi huquqiy baza va tashkiliy-institutsional mexanizmlar tizimli tahlil qilingan. Qonunchilik hujjatlarining zamonaviy ijtimoiy munosabatlarga mosligi, tizimning vertikal va gorizontal boshqaruv tuzilmalari, shuningdek, xodimlarning vakolat hamda majburiyatlari doirasi chuqur o'rganilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, sohaga oid huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish, institutsional tuzilmani optimallashtirish va xodimlarning huquqni qo'llash amaliyotidagi faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jamoat tartibi, ichki ishlar organlari xodimlari, huquqiy asoslar, institutsional tahlil, qonunchilik hujjatlari, boshqaruv tuzilmasi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, tizimli yondashuv.

Аннотация. В данном исследовании проведен системный анализ действующей правовой базы и организационно-институциональных механизмов, регулирующих деятельность сотрудников органов внутренних дел в обеспечении общественного порядка.

Изучены соответствие законодательных актов современным социальным отношениям, вертикальные и горизонтальные структуры управления системы, а также объем полномочий и обязанностей сотрудников. По результатам анализа разработаны научно-практические предложения по устранению правовых пробелов в сфере, оптимизации институциональной структуры и повышению эффективности правоприменительной практики сотрудников.

Ключевые слова: общественный порядок, сотрудники органов внутренних дел, правовые основы, институциональный анализ, законодательные акты, структура управления, профилактика правонарушений, системный подход.

Abstract. This research provides a systematic analysis of the current legal framework and organizational-institutional mechanisms regulating the activities of internal affairs bodies personnel in maintaining public order. The compliance of legislative acts with modern social relations, the vertical and horizontal management structures of the system, as well as the scope of powers and duties of the personnel are studied in depth. Based on the analysis results, scientific and practical proposals have been developed to eliminate legal gaps in the field, optimize the institutional structure, and increase the efficiency of the personnel's law enforcement practice.

Keywords: public order, internal affairs bodies personnel, legal foundations, institutional analysis, legislative acts, management structure, crime prevention, systematic approach.

Davlatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning tinchligi va xavfsizligini kafolatlash kabi muhim vazifalarning real hayotda qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, eng avvalo, mazkur vazifalarni ijro etuvchi organlar uchun yaratilgan huquqiy baza hamda

ularning institutsional tashkil etilganlik darajasiga bog'liqdir. Mamlakatimizda ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy tayanchi hisoblanadi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston sharoitida olib borilayotgan huquqiy-demokratik islohotlar ushbu organlar faoliyatini jazolovchi strukturadan xalqqa xizmat qiluvchi, ijtimoiy yo'naltirilgan institutga aylantirishni talab etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, sohani tartibga soluvchi qonunchilik normalari va tizimning ichki boshqaruv arxitekturasini chuqur va tizimli qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi.

Ichki ishlar organlari xodimining jamoat joylaridagi kundalik xizmati — xoh u patrul-post xizmati xodimi, xoh profilaktika inspektori bo'lsin — qat'iy qonun doirasida amalga oshirilishi shart. Biroq qonunchilikdagi ayrim nomuvofiqliklar, vakolatlarning aniq chegaralanmagani yoki institutsional boshqaruvdagi (bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik) uzilishlar xodimlarning operativ va qonuniy qaror qabul qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, sohaning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati ortib borayotgan bugungi kunda, xodimlarning huquqiy himoyasi, ijtimoiy kafolatlari va moddiy-texnik ta'minotining institutsional asoslarini mustahkamlash tizim samaradorligini belgilab beruvchi hal qiluvchi omillardan biridir. So'nggi yillarda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi tubdan isloh qilinib, "Xalq manfaatlari yo'lida xizmat qilish" tamoyili asosida ichki ishlar organlari faoliyatining mutlaqo yangi huquqiy me'yorlari va institutsional mexanizmlari shakllantirildi.

Ushbu faoliyatning huquqiy asosi, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ¹, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi ², "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi ³ qonunlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi kabi qator strategik va konseptual hujjatlar majmuasi bilan belgilanadi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasida xodimlarning huquq va majburiyatlarini, vakolat doiralarini hamda javobgarlik chegaralarini aniq belgilab beradi. Yuridik normalarning mukammalligi jamoat joylarida xizmat olib borayotgan xodimlarning qonuniy va tezkor qarorlar qabul qilishini ta'minlovchi birlamchi omildir.

Masalaning institutsional jihati esa ichki ishlar organlarining tuzilmaviy tashkil etilishi, ularning quyi, o'rta va yuqori bo'g'inlari o'rtasidagi boshqaruv munosabatlarini qamrab oladi.

Ayniqsa, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda jamoatchilikka asoslangan yondashuvni joriy etish orqali ichki ishlar organlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla) bilan hamkorligining institutsional arxitekturasini yaratildi. Bu, o'z navbatida, jamoat tartibini saqlash va quyi quyi tuzilmalarda profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda yagona, tizimli hamda kompleks yondashuvning shakllanishiga zamin yaratdi.

Mustaqillik yillarida, ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash sohasidagi faoliyati bosqichma-bosqich isloh qilib borilgan. Ayniqsa so'nggi o'n yillikda, ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash sohasidagi faoliyatini tashkil etish tizimi yangi bosqichda olib chiqildi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.

² O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni // <https://lex.uz/docs/-3027843>.

³ O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni // <https://lex.uz/docs/-2387357>.

Shu nuqtai nazardan, 2017 yildan bugungu kunga qadar islohotlarni tahlil qilamiz. Ushbu institutsional evolyutsiyani xronologik tartibda quyidagi asosiy bosqichlarga ajratish mumkin.

Birinci bosqich (2017-yil) — tashkiliy-huquqiy asosning yaratilishi. 2017-yil 10-aprelda qabul qilingan PF-5005-son Farmon ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish va ularning mas’uliyatini kuchaytirish vazifasini qo‘ygan bo‘lsa⁴, ushbu Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida 2017-yil 1-mayda qabul qilingan PQ-2940-son Qaror bilan patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash respublika, o‘rta va quyi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etishning sifat jihatidan mutlaqo yangi tartibi o‘rnatildi. Ushbu Qarorda patrul-post xizmati xodimlari o‘rtasida vazifa va funksiyalarning aniq taqsimlanishi, har bir xodimning shaxsiy javobgarligi, jamoat joylarida fuqarolarning huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishi, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, tungi vaqtlarda korrupsion holatlarga barham berish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi⁵.

Aynan shu Qaror bilan Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentiga ichki ishlar organlari bo‘linmalarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish va unga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish vakolati yuklatildi.

Ikkinchi bosqich (2018-yil) — hududiy-tarmoq modelining sinovdan o‘tkazilishi. 2018-yil 14-fevralda qabul qilingan “Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-3528-son Qaror⁶ bilan Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash sohasidagi faoliyatning sifat jihatidan yangi tizimi joriy etildi. Ushbu Qaror doirasida tuman ichki ishlar boshqarmalari negizida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar doirasida kuch va vositalarni maqsadli taqsimlovchi muvofiqlashtirish boshqarmalari tashkil etildi, shuningdek “Xavfsiz shahar” apparat-dasturiy kompleksi imkoniyatlaridan keng foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Bu — jamoat tartibini saqlash faoliyatini hududiy xususiyatlarga (kriminogen vaziyat, aholi zichligi) moslashtirilgan tarzda tashkil etishning dastlabki, poytaxt miqyosidagi tajribasi bo‘lib, keyinchalik respublika miqyosida kengaytirildi.

Uchinchi bosqich (2021-yil) — tizimli institutsional islohot. 2021-yil eng ko‘p islohotlar amalga oshirilgan yil bo‘ldi. 26-martda qabul qilingan PF-6196-son “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon⁷ bilan Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida Jamoat xavfsizligi departamenti (Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o‘z ichiga oluvchi) qayta tashkil etildi, mahalla huquq-tartibot maskanlari va profilaktika inspektorlari instituti joriy etildi.

⁴Ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zR Prezidentining Farmoni, 2017-yil 10-aprel, PF-5005-son.

⁵Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zR Prezidentining Qarori, 2017-yil 1-may, PQ-2940-son.

⁶Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida: O‘zR Prezidentining Qarori, 2018-yil 14-fevral, PQ-3528-son.

⁷Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zR Prezidentining Farmoni, 2021-yil 26-mart, PF-6196-son.

2021-yil 29-noyabrda qabul qilingan PF-27-son Farmon bilan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontseptsiyasi” tasdiqlandi⁸. Farmon bilan esa jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, jumladan, hududiy ichki ishlar organlarida jamoat tartibini saqlash tizimini rivojlantirish jamg‘armalarini tashkil etish belgilandi⁹. Shu yilning 29-dekabrda Ichki ishlar vazirligi va Moliya vazirligining qo‘shma qarori¹⁰ bilan tumanlararo patrul-post xizmati bo‘linmalarini tashkil etish me‘yorlari tasdiqlandi.

To‘rtinchi bosqich (2022–2023-yillar) — raqamlashtirish va qonunchilik bazasini kengaytirish. 2022-yil 22-iyulda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 399-son Qarori bilan 2023-yil 1-yanvardan boshlab ichki ishlar organlari faoliyatiga bosqichma-bosqich “E-patrul” tizimi joriy etilishi, fuqaroning shaxsini aniqlash uchun uni ichki ishlar bo‘limiga olib borish amaliyotidan voz kechilishi, barcha ma’lumotlarning joyida planshet orqali tekshirilishi va patrul-post xizmati xodimlari faoliyatining “bodikamera”dan foydalangan holda amalga oshirilishi belgilandi¹¹. 2023-yil 11-iyulda qabul qilingan O‘RQ-854-son Qonun bilan esa patrul-post xizmatiga hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish va jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste’mol qilish kabi huquqbuzarliklarni rasmiylashtirish vakolati berildi¹².

Beshinchi bosqich (2025–2026-yillar) — moliyaviy-institutsional mustahkamlash va vakolatlarni aniqlashtirish. 2025-yil 1-dekabrda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 754-son “Jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi Hukumat qarorlarini tizimlashtirish to‘g‘risida”gi Qarori¹³ bilan jamoat tartibini saqlash sohasidagi bir qator Hukumat qarorlari tizimlashtirildi, jumladan, patrul-post xizmati xodimlari tomonidan jamoat joylarida fuqarolarni elektron identifikatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom, “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Jamoat tartibini saqlash tizimining huquqiy-institutsional asoslarini mustahkamlashda sohaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va xodimlarni rag‘batlantirish mexanizmlarini qonuniylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 11-fevraldagi 55-son qarori bilan tasdiqlangan nizom¹⁴ ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash tizimini rivojlantirish jamg‘armalarini shakllantirish va ulardan foydalanishning yagona huquqiy tartibini belgilab berdi.

⁸O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zR Prezidentining Farmoni, 2021-yil 29-noyabr, PF-27-son.

⁹Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida: O‘zR Prezidentining Qarori, 2021-yil 30-noyabr, PQ-27-son.

¹⁰O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining 2021-yil 29-dekabrda “Tumanlararo patrul-post xizmati bo‘linmalarini tashkil etish me‘yorlari tasdiqlash to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori. XDFU

¹¹Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zR Vazirlar Mahkamasining qarori, 2022-yil 22-iyul, 399-son.

¹²Ekologiya va jamoat tartibini saqlash sohalaridagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida: O‘zR Qonuni, 2023-yil 11-iyul, O‘RQ-854-son.

¹³Jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi Hukumat qarorlarini tizimlashtirish to‘g‘risida: O‘zR Vazirlar Mahkamasining qarori, 2025-yil 1-dekabr, 754-son.

¹⁴O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 11-fevraldagi 55-son “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash tizimini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, XDFU.

Mazkur hujjatga muvofiq, ushbu jamg'armalar yuridik shaxs tashkil etmagan holda, Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Jamoat tartibini saqlash xizmatida hamda hududiy ichki ishlar boshqarmalarida tuzilishi qat'iy mustahkamlangan. Jamg'arma mablag'larini shakllantirishning institutsional manbalari etib patrul-post xizmati bo'linmalari tomonidan undirilgan ma'muriy jarimalar, ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha shartnomaviy tushumlar, qurol muomalasi sohasidagi ruxsatnomalar uchun yig'imlar, shuningdek, patrul-post xizmati tomonidan ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha undirilgan jarimalarning 10 foizi kabi aniq moliyaviy mexanizmlar belgilangan.

Ushbu mablag'larning Markazlashgan g'aznachilik tizimida saqlanishi va hududiy jamg'armalar tushumining 40 foizi respublika darajasidagi Jamoat tartibini saqlash xizmati jamg'armasiga yo'naltirilishi sohani yagona vertikal boshqarish hamda resurslarni maqsadli taqsimlash imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur qonunosti hujjati jamoat tartibini saqlash sub'ektlarini moddiy rag'batlantirish va texnik ta'minlashning yangi institutsional darajasini o'rnatdi. Nizomga ko'ra, jamg'arma mablag'lari bevosita jamoat tartibini saqlash bo'linmalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga, infratuzilma ob'ektlarini ta'mirlashga hamda maxsus muassasalar va avtotransport vositalariga o'rnatilgan videokuzatuv tizimlariga texnik xizmat ko'rsatishga yo'naltiriladi. Kadrlar salohiyatini oshirish va xodimlarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida, ish samaradorligini baholash mezonlari asosida jamoat tartibini saqlash bo'linmalari xodimlariga lavozim maoshining 100 foizigacha bo'lgan miqdorda har oylik ustama to'lovlari belgilanishi kafolatlangan¹⁵. Bundan tashqari, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda bevosita amaliy yordam ko'rsatgan fuqarolarni bir martalik pul mukofoti yoki qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlash tartibining joriy etilishi, jamiyat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligining moliyaviy-huquqiy rag'batini shakllantiradi. Mablag'lardan maqsadsiz foydalanishning qat'iy taqiqlanishi hamda ularning sarflanishi ustidan Ichki ishlar vazirligi Nazorat-taftish inspeksiyasi va davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan qat'iy nazorat o'rnatilishi ushbu institutsional tizimning ochiqqligi va qonuniyligini ta'minlovchi muhim huquqiy kafolat sanaladi.

2026-yil 17-aprelda qabul qilingan O'RQ-1132-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan esa mahalla huquq-tartibot maskanlari va tayanch punktlarining tarkibi, profilaktika inspektorlari toifalarining vakolatlari yanada aniqlashtirildi¹⁶. Shuni ham qayd etish lozimki, jamg'arma tashkil etilishi jarayonida idoralararo muvofiqlashtirish davom etmoqda — xususan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan jamg'arma nomi va uning tashkiliy-huquqiy shaklini aniqlashtirish yuzasidan takliflar kiritilgan¹⁷. Yuqoridagi bosqichlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, so'nggi 2017–2026 yillar davomida jamoat tartibini saqlash sohasidagi institutsional islohotlar izchil, bir-birini mantiqiy davom ettiruvchi tarzda amalga oshirilgan.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 11-fevraldagi 55-son "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, XDFU.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining O'RQ-1132-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun. // <https://lex.uz/docs/-8145044>.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 20-avgustdagi 03/34-2-18251-son xati (Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi ID-7105, V-1 bo'yicha taklif va e'tirozlar), Hujjat kodi: ZP34213047.

Dastlab tashkiliy-huquqiy asos yaratilgan (2017), soʻngra hududiy model sinovdan oʻtkazilgan (2018), keyin tizimli institutsional qayta tashkil etish amalga oshirilgan (2021), soʻngra raqamlashtirish va qonunchilik bazasi kengaytirilgan (2022–2023), va nihoyat, moliyaviy-institutsional mustahkamlash bosqichiga oʻtilgan (2025–2026). Bu tizimli-strategik yondashuvning amaliyotda izchil qoʻllanilayotganini tasdiqlaydi.

Institutsional evolyutsiyaning yanada aniq tasavvurini berish maqsadida, yuqorida koʻrib chiqilgan asosiy meʼyoriy-huquqiy hujjatlarni xronologik jadval koʻrinishida umumlashtirish maqsadga muvofiqdir:

Jadval. Ichki ishlar organlari xodimlarining jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil etishning meʼyoriy-huquqiy hujjatlarini xronologiyasi (2017-2026)

Sana	Hujjat	Asosiy mazmuni
2017-yil 10-aprel	PF-5005-son Farmon	Ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish, masʼuliyatni kuchaytirish
2017-yil 1-may	PQ-2940-son Qaror	PPX va jamoat tartibini saqlash boʻlinmalari faoliyatini tashkil etishning yangi tartibi
2018-yil 14-fevral	PQ-3528-son Qaror	Toshkentda hududiy-sektor modeli, “Xavfsiz shahar” kompleksi
2021-yil 26-mart	PF-6196-son Farmon	Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etilishi, mahalla huquq-tartibot maskanlari
2021-yil 29-noyabr	PF-27-son Farmon	Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasi tasdiqlanishi
2021-yil 30-noyabr	PQ-27-son Qaror	Jamgʻarmalar tashkil etilishi, qoʻshimcha chora-tadbirlar
2021-yil 29-dekabr	IIV va MV qoʻshma qarori	Tumanlararo PPX boʻlinmalarini tashkil etish meʼyorlari
2022-yil 22-iyul	VMning 399-son qarori	“E-patrul” tizimining bosqichma-bosqich joriy etilishi
2023-yil 11-iyul	OʻRQ-854-son Qonun	PPX vakolatlarining kengaytirilishi (ekologiya, jamoat tartibi)
2025-yil 1-dekabr	VMning 754-son qarori	Hukumat qarorlarini tizimlashtirish, “Obod va xavfsiz mahalla”
2026-yil 11-fevral	VMning 55-son qarori	Jamgʻarma mablagʻlarini shakllantirish va foydalanish tartibi
2026-yil 17-aprel	OʻRQ-1132-son Qonun	Mahalla huquq-tartibot maskanlari tarkibi va vakolatlarini aniqlashtirish

Ushbu jadvaldan koʻrinib turibdiki, jamoat tartibini saqlash sohasidagi meʼyoriy-huquqiy faollik bir xil taqsimlanmagan — 2021-yil asosiy qismini tashkil etadi (toʻrtta asosiy hujjat qabul qilingan), bu esa aynan shu yilda tizimli institutsional islohotning eng yuqori intensivlikda amalga oshirilganligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, 2025–2026-yillardagi qayta faollashuv (uchta hujjat) — bu birinchi bosqichdagi institutsional oʻzgarishlarning moliyaviy-huquqiy “yetilish” davriga kirganligidan, yaʼni dastlab yaratilgan tashkiliy tuzilmalarni endi barqaror moliyaviy va huquqiy asosga oʻtkazish zarurati tugʻilganidan dalolat beradi.

Bunday to‘lqinsimon (notekis) islohot dinamikasi ko‘pgina rivojlanayotgan davlatlar, jumladan Gruziya va Qozog‘iston tajribasiga xos umumiy xususiyat bo‘lib, u institutsional o‘zgarishlarning “katta portlash” va “bosqichma-bosqich yetilish” fazalarining almashinib turishini aks ettiradi.

Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risidagi PQ-3528-son Qaror bilan joriy etilgan Toshkent shahridagi sektorli-muvofiqlashtiruv modelini alohida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir, chunki u keyinchalik respublika miqyosidagi islohotlar uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu model doirasida tashkil etilgan muvofiqlashtirish boshqarmalarining asosiy vazifalari ichki ishlar organlari bo‘linmalari faoliyatini tahlil qilish, rejalashtirish va tashkil etish, sektorlarga bo‘lish tamoyili asosida tuman hududi doirasida real vujudga kelgan tezkor va kriminogen vaziyatni hisobga olgan holda mavjud kuch va vositalarni taqsimlash, shuningdek xalq bilan manzilli muloqotni va fuqarolarning eng muhim muammolarini hal etishda har tomonlama ko‘maklashishni ta‘minlashdan iborat edi¹⁸.

Ushbu Qarorda belgilangan olti ustuvor yo‘nalish orasida alohida e‘tiborga molik jihat — “Jaholatga qarshi ma‘rifat” ezgu g‘oyasi asosida har bir mahalla kesimida diniy-ekstremistik xususiyatga ega bo‘lgan huquqbuzarliklarni sodir etish sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash va bartaraf etishga alohida e‘tibor qaratilishi, shuningdek prokuratura organlari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish vazifasining ham jamoat tartibini saqlash strategiyasi tarkibiga kiritilganligidir. Bu shuni ko‘rsatadiki, milliy huquqshunoslikda jamoat tartibini saqlash tushunchasi, birinchi bobda ko‘rib chiqilgan keng ma‘nodagi ta‘rifga muvofiq, nafaqat tor huquq-tartibot vazifalarini, balki mafkuraviy-tarbiyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy profilaktika elementlarini ham qamrab oladi.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6196-son Farmon asosida tashkil etilgan Jamoat xavfsizligi departamentining tarkibiy tuzilmasini alohida ko‘rib chiqish institutsional tahlil uchun muhim ahamiyatga ega. Farmonga muvofiq, Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida quyidagi bosh boshqarmalar va xizmatlarni birlashtiruvchi Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etilgan: Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi — jamoat tartibini saqlash faoliyatining bevosita tashkilotchisi va muvofiqlashtiruvchisi; Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi — profilaktik ishlarni tizimli tashkil etuvchi tarkibiy qism; Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi — yo‘l-transport sohasidagi xavfsizlikka mas‘ul tuzilma; Probatsiya xizmati — sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi xizmat¹⁹.

Ushbu tarkibiy tuzilmaning ilmiy-institutsional ahamiyati shundaki, u jamoat tartibini saqlash faoliyatini boshqa, funksional jihatdan yaqin turadigan sohalar (huquqbuzarliklar

¹⁸ Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida: O‘zR Prezidentining Qarori, 2018-yil 14-fevral, PQ-3528-son.

¹⁹ Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zR Prezidentining Farmoni, 2021-yil 26-mart, PF-6196-son

profilaktikasi, yo‘l harakati xavfsizligi, probatsiya) bilan bitta boshqaruv organi — departament — doirasida birlashtiradi. Bu, birinchi bobda ko‘rib chiqilgan tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan, alohida-alohida ishlaydigan bo‘linmalar o‘rniga yaxlit, o‘zaro muvofiqlashtirilgan tizim yaratilganligini anglatadi. Shu bilan birga, hududiy darajada — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarida — ushbu departamentning tegishli tarmoq bo‘linmalari (Jamoat tartibini saqlash xizmati) faoliyat yuritadi, bu esa markazdan hududgacha bo‘lgan boshqaruv vertikalining uzluksizligini ta‘minlaydi.

Jamoat tartibini saqlash faoliyatining bevosita ijrochisi sifatida patrul-post xizmati (PPX) saf bo‘linmalari alohida institutsional-huquqiy maqomga ega. PPX saf bo‘linmalarining vazifa va funksiyalarini tartibga soluvchi ichki ishlar vazirligi normativ-idoraviy hujjatiga muvofiq, ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- xizmat hududlarida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rish;
- xizmat hududlaridagi kriminogen vaziyatni tahlil qilgan holda huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish;
- ekstremal vaziyatlarda, ayniqsa terrorchilik harakatlari va boshqa og‘ir jinoyatlar sodir etilganda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha doimiy jangovar shaylikni ta‘minlash;
- ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta‘minlashning yuqori mobilligi va samaradorligini oshirish;
- postlar va patrullik yo‘nalishlarida boshqa davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va aholi bilan hamkorlikni ta‘minlash.

Alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga molik jihat — PPX saf bo‘linmalarining proaktiv-tahliliy funksiyasidir. Ularning zimmasiga jamoat joylaridagi hodisa va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish, umumlashtirish va tahlil qilish, shuningdek patrul-post naryadlariga birlashtirilgan mahallalarni jinoyat va huquqbuzarliklar salmog‘i jihatidan “Qizil”, “Sariq” va “Yashil” hududlarga ajratish hamda mavjud kuch va vositalar taqsimotiga shunga muvofiq o‘zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilgan²⁰. Ushbu hududiy tasniflash mexanizmi, mohiyatan, birinchi bobda ko‘rib chiqilgan xavf-xatarlarni baholash indikatorlari tizimining amaliy ifodasi bo‘lib, u resurslarni kriminogen vaziyatga mutanosib ravishda taqsimlash imkonini beradi.

PPX saf bo‘linmalarining funksional tuzilishini besh yo‘nalishga ajratish mumkin:

- a) bevosita jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish (patrullik, shaxslarni aniqlash, huquqbuzarlarni ichki ishlar organiga yetkazish);
- b) kriminogen vaziyatni tahlil qilish va prognozlashtirish (“issiq izidan” fosh etish, videokuzatuv vositalaridan foydalanish, hududiy tasniflash);
- v) ekstremal vaziyatlarga tayyorgarlik (infratuzilmani mustahkamlash, mashq va o‘quv mashg‘ulotlari, favqulodda vaziyatlarda birlamchi choralar);
- g) ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta‘minlash (muhandislik-texnik vositalar, kirish nazorati);

²⁰Patrul-post xizmati saf bo‘linmalarining vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilovchi Ichki ishlar vazirligi normativ-idoraviy hujjati (lavozim yo‘riqnomasi).

d) boshqa organlar va aholi bilan hamkorlik (axborot almashish, jamoatchilik fikrini o'rganish, fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritish).

Yuqoridagi besh yo'nalishga qo'shimcha tarzda, PPX saf bo'linmalari zimmasiga yana ikkita muhim ixtisoslashgan vazifa yuklatilgan bo'lib, ular alohida ilmiy-amaliy tahlilni talab qiladi.

Birinchisi — voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi. Ushbu yo'nalish doirasida PPX xodimlari ko'chalar va boshqa jamoat joylarida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish, nazoratsiz va qarovsiz qolgan, shuningdek alkogol yoki narkotik vositalar ta'sirida bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlash va ularni ichki ishlar organi navbatchilik qismi yoki tayanch punktiga olib borish, voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga (qimor o'yinlari, tilamchilik, spirtli ichimlik iste'moli) jalb qilayotgan shaxslarni aniqlash bo'yicha profilaktik ishlarni olib boradi²¹. Bu yo'nalish jamoat tartibini saqlash faoliyatining nafaqat repressiv, balki chuqur ijtimoiy-profilaktik mazmunga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ikkinchisi — yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashish. PPX xodimlari, garchi bu ularning asosiy vazifasi bo'lmasa-da, piyodalar tomonidan yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, mast holatdagi yoki tegishli hujjatlarga ega bo'lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishiga yo'l qo'ymaslik, yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganda birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va hodisa izlarining saqlanishini ta'minlash kabi vazifalarni ham bajaradilar, bunda ular yo'l-patrul xizmati xodimlari bilan uzviy hamkorlikda ishlaydilar²².

Bu — PPX faoliyatining boshqa ixtisoslashgan xizmatlar (yo'l-patrul xizmati, huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati, probatsiya xizmati) bilan funksional jihatdan chambarchas bog'liqligini, ya'ni jamoat tartibini saqlash tizimining bir yaxlit, o'zaro ta'sirdagi mexanizm sifatida faoliyat yuritishini ko'rsatadi.

PPX saf bo'linmalari faoliyatining zamonaviy raqamli tashkil etilishini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir, chunki "E-patrul" tizimi nafaqat texnik vosita, balki fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklariga bevosita daxldor bo'lgan protsedura-huquqiy mexanizmdir.

Tizim orqali fuqaroning shaxsiga doir ma'lumotlari (familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash manzili, tug'ilgan sanasi), shuningdek huquqbuzarlik yoki boshqa (sudlanganligi, qidiruvda ekanligi, profilaktik, probatsiya yoxud ma'muriy nazorat hisobida turishi) ma'lumotlari joyida tekshiriladi, bunda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, xodimga biriktirilgan planshet orqali ma'lum bo'lgan ma'lumotlarning oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydi²³.

Qonunchilikda xodim fuqaroni to'xtatishi va uning shaxsini aniqlashi mumkin bo'lgan uch aniq asos belgilangan:

shaxs jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan yoxud qidiruvda deb gumon qilish uchun asoslar mavjudligi;

²¹ Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida: O'zR Qonuni, 2019-yil 2-iyul, O'RQ-547-son.

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: farmoni, 2021-yil 29-noyabr, // <https://president.uz/oz/lists/view/4865>

²³ O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/-4396419>.

shaxsni sodir etilgan jinoyat yoki huquqbuzarlik haqida ma'lumotga ega deb hisoblash mumkinligi;

qonunchilikka muvofiq shaxsni ushlab turish uchun boshqa qonuniy asoslar mavjudligi.

Ushbu uch asosning aniq, tugallangan ro'yxat sifatida belgilanganligi — fuqarolarning shaxsiy daxlsizlik huquqini o'zboshimchalik bilan cheklashning oldini oluvchi muhim huquqiy kafolat hisoblanadi.

Shaxsni aniqlash protsedurasi ham qat'iy tartibga solingan: xodim suhbatlashishdan oldin o'zini tanishtirishi, zarur hollarda xizmat guvohnomasini ko'rsatishi (lekin uni fuqaroga topshirmasligi), planshet orqali barmoq izi yoki yuz tuzilishini aniqlash orqali identifikatsiya o'tkazishi, muomala madaniyatiga rioya qilishi, to'xtatish va shaxsni aniqlash sabablarini tushuntirib berishi shart²⁴. Fuqaro faqat to'rtta cheklangan holatda — planshet orqali shaxsni aniqlash imkoni bo'lmaganda, qidiruvda yoki bedarak yo'qolgan shaxs aniqlanganda, aniqlash jarayonida qarshilik ko'rsatilganda, yoki jamoat joyida huquqbuzarlik sodir etish vaqtida ushlanganda — ichki ishlar organiga olib borilishi mumkin, bu esa ilgari keng qo'llanilgan, fuqarolarni sababsiz idoraga olib borish amaliyotidan voz kechilganligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, xodimlarning texnik vositalardan (planshet, bodikamera) foydalanishi bo'yicha ham aniq javobgarlik mexanizmi belgilangan: xodim ma'lumotlarning to'g'ri kiritilishi, ularning uchinchi shaxslarga oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar bo'lib, texnik vositalarning yo'qolishi yoki qasddan yaroqsiz holga keltirilishi holatida yetkazilgan zarar xodimning o'zi hisobidan qoplanadi. Bunday qat'iy individual javobgarlik mexanizmi, bir tomondan, texnik vositalardan ehtiyotkorona foydalanishni rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan, keyingi paragraflarda ko'rib chiqiladigan ba'zi amaliy muammolarning (masalan, xodimlarning qo'shimcha moddiy javobgarlikdan cho'chishi) sababi bo'lishi ham mumkin.

“E-patrul” tizimining institutsional-huquqiy tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur tizim jamoat tartibini saqlash faoliyatida uchta muhim vazifani bir vaqtning o'zida bajaradi. Birinchidan, u operativ vazifani bajaradi — fuqarolarning shaxsini tezkor va aniq aniqlash orqali huquqbuzarliklarni o'z vaqtida oldini olish yoki fosh etishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, u nazorat-shaffoflik vazifasini bajaradi — bodikameralar orqali yozib olingan audio-video materiallar nafaqat huquqbuzarlarga qarshi dalil sifatida, balki PPX xodimlarining o'zlari tomonidan xizmat vazifalarini bajarish jarayonini nazorat qilish vositasi sifatida ham xizmat qiladi, bu esa xizmat intizomini mustahkamlash va korrupsion holatlarning oldini olishga ko'maklashadi. Uchinchidan, u statistik-tahliliy vazifani bajaradi — tizimga kiritilgan ma'lumotlar yig'indisi asosida kriminogen vaziyat dinamikasini kuzatish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi, garchi hozirgi bosqichda bu imkoniyat birinchi bobda ko'rib chiqilgan Janubiy Koreyaning GeoPros tizimidagi darajada ilmiy-statistik chuqurlikka ega bo'lmasa-da.

PPX saf bo'linmalari xodimlarining huquqiy maqomi ularga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan bir qator vakolatlar bilan mustahkamlangan: fuqarolardan qonunchilik hujjatlariga rioya etishni talab qilish, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni belgilangan tartibda ichki ishlar organiga yoki huquq-tartibot maskanlariga olib borish, o'z vakolatlari doirasida jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalarini buzuvchi fuqarolarni rasmiy ogohlantirish,

²⁴ O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/-4396419>.

shuningdek zarur hollarda transport vositalarini to'xtatish va tekshirish²⁵. Alohida ta'kidlash lozimki, xizmat vazifalarini bajarishda jismoniy kuch, maxsus vositalar (rezina tayoqcha, qo'l kishani, elektroshok qurilmasi va boshqalar) va o'qotar qurolni qo'llash "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunning 21–24-moddalarida qat'iy belgilangan asoslar va tartibda amalga oshiriladi²⁶, bu esa majburlov vositalarining qonuniylik va proporsionallik tamoyillariga muvofiq qo'llanilishini kafolatlaydi.

PPX saf bo'linmalarining huquqlar tizimini funksional guruhlariga ajratish mumkin.

Birinchi guruh — axborot-tahliliy huquqlar bo'lib, ularga ichki ishlar organlarining boshqa bo'linmalaridan, shuningdek boshqa davlat organlari va tashkilotlaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, axborot-tahlil va hisobot ma'lumotlarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar, ma'lumotlar va boshqa materiallarni so'rab olish, shuningdek ichki ishlar organlari ma'lumotlar bazasidan foydalanish huquqi kiradi. Ikkinchi guruh — majburlov-nazorat huquqlari bo'lib, ularga jismoniy kuch, maxsus vositalar va qurol qo'llash, shaxslarni to'xtatish va tekshirish, rasmiy ogohlantirish berish, davlat organlari mansabdor shaxslariga bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqi kiradi. Uchinchi guruh — tashkiliy-tashabbuskorlik huquqlari bo'lib, ularga fuqarolarni ularning roziligi bilan jamoat tartibini saqlash ishlariga jalb etish, maxsus avtomobillarni, chet el delegatsiyalarini kuzatib borish, zarur bo'lganda transport va piyodalar qatnovini cheklash yoki taqiqlash huquqi kiradi.

Shu bilan birga, PPX saf bo'linmalari va ularning xodimlari o'z zimmasidagi majburiyatlar doirasida javobgarlikka ham tortiladi: xodimning noqonuniy xatti-harakati yoki harakatsizligi, xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi yoki xizmat intizomini buzganligi uchun qonunchilikka muvofiq javobgarlik nazarda tutilgan, xodimning noqonuniy xatti-harakati tufayli jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar belgilangan tartibda qoplanadi va keyinchalik aybdor shaxsdan undirilib olinadi. Ushbu huquq-majburiyat-javobgarlik uchligi PPX faoliyatining huquqiy jihatdan muvozanatlashgan, ikki tomonlama (fuqarolarni ham, xodimlarni ham himoya qiluvchi) tizim sifatida tashkil etilganligini ko'rsatadi.

PPX xodimlarining majburiyatlar tizimini ham ikki asosiy guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh — umumiy-huquqiy majburiyatlar bo'lib, ularga jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasiga oid qonunchilik hujjatlarini bilish va ularga amal qilish, jamoat joylarida huquq-tartibotni ta'minlash, huquqbuzarlarga nisbatan qo'llanilayotgan choralarning huquqiy asoslarini tushuntirib berish kiradi. Ikkinchi guruh — operativ-axborot majburiyatlari bo'lib, ularga jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi har qanday hodisa to'g'risida hududiy ichki ishlar organlari va navbatchilik qismlariga o'z vaqtida xabar berish, fuqarolarning qarovsiz qolgan mol-mulkini aniqlash va uni yaqin ichki ishlar bo'limiga topshirish, shuningdek jamoat joylarida sodir bo'layotgan huquqbuzarliklarning oldini olganlik holatlari yuzasidan navbatchilik qismiga axborot berish kiradi.

Bunday ikki bosqichli majburiyatlar tizimi xodimning nafaqat bevosita amaliy faoliyatini, balki uning axborot-tahliliy tizimga qo'shgan hissasini ham institutsional jihatdan tartibga soladi.

²⁵ ИИВнинг 2023 йил 20 февралдаги 77-сон "Ички ишлар органлари патруль-пост хизмати фаолияти самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги буйруқ билан тасдиқланган Ички ишлар органлари патруль-пост хизмати фаолиятини ташкил этиш тўғрисидаги низоми. ХДФУ.

²⁶ Ichki ishlar organlari to'g'risida: O'zR Qonuni, 2016-yil 16-sentyabr, O'RQ-420-son, 21–24-moddalar.

Jamoat tartibini saqlash resurslarini hududiy jihatdan oqilona taqsimlash maqsadida, 2021-yil 29-dekabrda Ichki ishlar vazirligi va Moliya vazirligining qo'shma qarori bilan tumanlararo patrul-post xizmati bo'linmalarini tashkil etish me'yorlari tasdiqlangan²⁷. Ushbu me'yorlarga ko'ra, tumanlararo PPX bo'linmalari, birinchidan, ichki ishlar organlarining tumanlararo patrul-post xizmati bo'linmasi xizmat ko'rsatishi rejalashtirilayotgan tuman(shahar)larning aholi sonining zichligidan va ulardagi jinoyatchilikning ahvolidan kelib chiqqan holda belgilanadi; ikkinchidan, me'yorlar faoliyati "qizil" deb baholangan hududlarda tumanlararo patrul-post xizmati bo'linmalarining patrullik yo'nalishlarini tashkil etish uchun tatbiq etiladi.

Ushbu hujjatda belgilangan aniq miqdoriy me'yorlarni quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin:

Tuman (shahar) aholisi	"Qizil" hududga kiruvchi mahallalar soni	Tashkil etiladigan patrullik yo'nalishlari
500 minggaacha	10 tagacha	har bir tuman (shahar) uchun 1 tadan
500 mingdan 1 milliongacha	10 tagacha	har bir tuman (shahar) uchun 2 tadan
1 milionndan ortiq	10 tagacha	har bir tuman (shahar) uchun 3 tadan
(barcha toifalar)	10 tadan oshganda	keyingi har 5 ta mahallaga 1 ta yo'nalish qo'shiladi

Ushbu me'yorlashtirish mexanizmining ilmiy-metodologik ahamiyati shundaki, u birinchi bobda ko'rib chiqilgan tizimli yondashuvning muhim tamoyili — resurslarni ob'ektiv ko'rsatkichlar (aholi zichligi, kriminogen vaziyat) asosida taqsimlash tamoyilini amaliyotga tatbiq etadi. Shu bilan birga, ushbu me'yorlar faqat "qizil" hududlar uchun tumanlararo (qo'shimcha) bo'linmalar sonini belgilashga xizmat qiladi, ya'ni u asosiy, doimiy PPX bo'linmalarini emas, balki jinoyatchilik keskin oshgan hududlarga qo'shimcha kuch yo'naltirish mexanizmini tartibga soladi.

Mazkur me'yorlashtirish tizimining institutsional mantig'ini chuqurroq tahlil qilsak, u ikkita muhim metodologik xususiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Birinchidan, tizim dinamik xarakterga ega — ya'ni "qizil" hududlar ro'yxati va ularga ajratiladigan patrullik yo'nalishlari soni statik emas, balki PPX saf bo'linmalarining o'zlari tomonidan olib boriladigan doimiy tahliliy monitoring natijalariga qarab davriy ravishda qayta ko'rib chiqiladi. Bu, mohiyatan, birinchi bobda ko'rib chiqilgan ekstrapolyatsiya va ekspert baholash usullarining sodda, amaliy shaklda qo'llanilishidir. Ikkinchidan, me'yorlash tizimi progressiv (bosqichli o'sish) xarakterga ega bo'lib, dastlabki 10 ta "qizil" mahallaga nisbatan aholi soniga qarab 1–3 ta yo'nalish ajratilsa, keyingi har 5 ta qo'shimcha "qizil" mahalla uchun yana 1 tadan yo'nalish qo'shib boriladi — bu chiziqli bo'lmagan, ammo oddiy va amaliyotda qo'llash uchun qulay formula hisoblanadi.

²⁷O'zR Ichki ishlar vazirligi va Moliya vazirligining 2021-yil 29-dekabr, 81- va 29-xx-son "Tumanlararo patrul-post xizmati bo'linmalarini tashkil etish me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qo'shma qarori // XDFU.

Jamoat tartibini saqlash faoliyatining institutsional barqarorligini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi — uning moliyaviy ta'minotidir. “Tumanlararo patrul-post xizmati bo‘linmalarini tashkil etish me’yorlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qo‘shma qarorga muvofiq, Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Jamoat tartibini saqlash xizmati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarida yuridik shaxs tashkil etmagan holda jamoat tartibini saqlash tizimini rivojlantirish jamg‘armalari tashkil etilgan²⁸. 2026-yil 11-fevralda tasdiqlangan Nizomga ko‘ra, ushbu jamg‘arma mablag‘lari, jumladan, jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash (avtotransport vositalari, aloqa va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi), shuningdek ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid vazifalarni bajarish uchun sarflanadi²⁹. Jamg‘arma mablag‘lari Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligida ochilgan alohida hisobvaraqda jamg‘arilib, moliyaviy nazorat Nizomda belgilangan tartibda, mas’ul mansabdor shaxslar (bosh tasarrufchilar) tomonidan amalga oshiriladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, mazkur jamg‘arma tizimining institutsional-huquqiy shakllanishi hozirgi kunda ham davom etmoqda: Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tegishli qaror loyihasiga kiritilgan takliflarda jamg‘armaning nomlanishi (“tizimni rivojlantirish jamg‘armasi” o‘rniga “xizmat jamg‘armasi”), uning tashkiliy-huquqiy joylashuvi (Moliya vazirligi g‘aznachiligi o‘rniga G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi) kabi masalalar bo‘yicha aniqlashtirishlar kiritilgan, shuningdek jamg‘arma mablag‘lari manbalaridan biri sifatida ilgari nazarda tutilgan “hududiy ichki ishlar organlarining jamg‘armaga tushadigan mablag‘larning 40 foizi” bandi yetarli asoslanmaganligi sababli qaror loyihasidan chiqarib tashlangan. Bu — jamoat tartibini saqlash tizimining moliyaviy-institutsional asosi hali to‘liq barqarorlashmagan, izchil takomillashtirish jarayonida ekanligini ko‘rsatadi.

Jamoat tartibini saqlash faoliyatining institutsional barqarorligi, moliyaviy ta'minot bilan bir qatorda, kadrlar siyosatiga ham bevosita bog‘liqdir. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, ichki ishlar organlari patrul-post xizmati saf bo‘linmalari safiga xizmatga qabul qilish belgilangan tartib asosida — nomzodlarning test sinovlaridan o‘tishi, o‘rganish bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tishi, hamda muayyan toifadagi shaxslar (akademik va harbiy-akademik litsey bitiruvchilari, harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalarida kamida bir yil ish stajiga ega xodimlar, oliy ma’lumotli fuqarolar) hisobidan shakllantiriladi. Ushbu talablarning institutsional oqibati sifatida ichki ishlar organlari safiga xizmatga kirish istagida bo‘lgan fuqarolar doirasining ma’lum darajada cheklanishi kuzatilib, bu nomzodlar auditoriyasining qisqarishiga olib kelmoqda.

Kadrlar barqarorligi masalasi ham alohida institutsional ahamiyat kasb etadi: amaliyotda patrul-post xizmati saf bo‘linmalaridan ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlariga o‘tib ketish holatlari kuzatilib, bu kadrlar qo‘nimsizligi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarmoqda.

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 20-avgustdagi 03/34-2-18251-son xati (Hujjat kodi: ZP34213047).

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 11-fevraldagi 55-son “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash tizimini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, XDFU.

Ushbu masala, ilmiy nuqtayi nazardan, birinchi bobda ko'rib chiqilgan Germaniya va boshqa xorijiy davlatlar tajribasidagi barqaror kasbiy ixtisoslashuv tamoyili bilan tanqidiy taqqoslanganda, milliy amaliyotda hali institutsional jihatdan yetarlicha mustahkamlanmagan kadrlar siyosati sohasi mavjudligini ko'rsatadi.

Yuqorida bayon etilgan milliy institutsional tajribani birinchi bobning uchinchi paragrafida ko'rib chiqilgan xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyoslash quyidagi muhim o'xshashlik va farqlarni aniqlashga imkon beradi.

Birinchidan, O'zbekistonning mahalla huquq-tartibot maskanlari va profilaktika inspektorlari instituti, mazmunan, Buyuk Britaniyaning "neighbourhood policing" va Singapurning "Mahalla politsiya markazlari" (NPC) tajribasiga yaqin turadi — ikkala holatda ham muayyan hududga biriktirilgan, aholi bilan doimiy aloqada bo'luvchi mas'ul xodim instituti markaziy o'rin tutadi. Biroq farq shundaki, Singapur tajribasida NPC markazlari bir joyda tergov, patrul va ma'muriy xizmatlarni to'liq birlashtirgan ko'p funksiyali tuzilma bo'lsa, O'zbekistonda mahalla huquq-tartibot maskanlari hozircha, birinchi navbatda, profilaktika inspektorining ish joyi sifatida faoliyat yuritadi, tergov funksiyasi esa alohida tuzilmalar zimmasida qolmoqda.

Ikkinchidan, "E-patrul" tizimi, planshet va bodikamera vositalari orqali amalga oshiriladigan elektron identifikatsiya — bu, birinchi bobda ko'rib chiqilgan Janubiy Koreyaning GeoPros tizimi va Seulning aqlli videokuzatuv infratuzilmasiga institutsional-texnologik jihatdan yaqin turuvchi yechimdir. Shu bilan birga, O'zbekiston tajribasida hozircha jinoyat sodir bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan hududlarni ilmiy-statistik tahlil asosida aniqlovchi, GeoPros tipidagi geografik-prediktiv tizim mavjud emas — mavjud "Qizil/Sariq/Yashil" hududiy tasniflash tizimi ko'proq amaliy-tajribaviy (empirik) xarakterga ega bo'lib, uni ilmiy-statistik modellashtirish orqali takomillashtirish uchun katta salohiyat mavjud.

Uchinchidan, Germaniya tajribasidagi Shutspolitsey/Kriminalpolitsey funksional ixtisoslashuviga o'xshash tarzda, O'zbekistonda ham Jamoat xavfsizligi departamenti tarkibida patrul-profilaktika (PPX) va tergov-tezkor faoliyat institutsional jihatdan ajratilgan. Biroq muammo-taklif tahlillarida qayd etilganidek (bu masala navbatdagi paragrafda batafsil ko'rib chiqiladi), amalda PPX xodimlarining boshqa xizmatlarga o'tib ketish holatlari kuzatilmoqda, bu esa Germaniya modelidagi barqaror kasbiy ixtisoslashuvdan farqli o'laroq, O'zbekistonda kadrlar barqarorligi masalasi hali to'liq hal etilmaganligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi qiyosiy tahlil shuni tasdiqlaydiki, O'zbekistonning jamoat tartibini saqlash sohasidagi institutsional islohotlari xorijiy ilg'or tajribalarning asosiy yo'nalishlari (hududiy-mahalliy yondashuv, raqamlashtirish, funksional ixtisoslashuv) bilan mos keladi, biroq ularning amaliy chuqurligi va texnologik-ilmiy asoslanganligi jihatidan yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Yakunlovchi xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, ushbu paragrafda o'tkazilgan huquqiy-institutsional tahlil ikkita muhim ilmiy-amaliy natijaga olib keldi.

Birinchidan, u jamoat tartibini saqlash faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari nafaqat mavjud, balki izchil, dinamik tarzda takomillashtirilib borilayotganini ko'rsatdi — bu tizimli-strategik yondashuvning nazariy to'g'riligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, tahlil davomida aniqlangan ayrim institutsional bo'shliqlarni (jamg'arma tizimining hali barqarorlashmaganligi, kadrlar qo'nimsizligi, ilmiy-statistik prognozlashtirish

vositalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi) navbatdagi paragrafda chuqur muammoli tahlil ob'ekti sifatida ko'rib chiqamiz.

Yuqorida o'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil etishning huquqiy-institutsional asoslari 2017–2026-yillar davomida besh bosqichli, izchil va bir-birini mantiqiy davom ettiruvchi islohotlar orqali shakllangan: tashkiliy-huquqiy asos yaratilishi (2017) — hududiy modelni sinash (2018) — tizimli institutsional qayta tashkil etish (2021) — raqamlashtirish (2022–2023) — moliyaviy-institutsional mustahkamlash (2025–2026).

2. Jamoat xavfsizligi departamenti tarkibiy tuzilmasi (PPX va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmalari hamda probatsiya xizmati) jamoat tartibini saqlash bilan funksional jihatdan yaqin sohalarini yaxlit boshqaruv tizimiga birlashtiradi.

3. Patrul-post xizmati saf bo'linmalari jamoat tartibini saqlash faoliyatining bevosita ijrochisi sifatida keng qamrovli vazifa va funksiyalarga ega bo'lib, ularning faoliyati nafaqat reaktiv (huquqbuzarlikka javob berish), balki proaktiv-tahliliy ("qizil/sariq/yashil" hududiy tasniflash, voyaga yetmaganlar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligiga ko'maklashish orqali) xarakterga ham ega.

4. "E-patrul" tizimi orqali fuqarolarning shaxsini aniqlash protsedura-huquqiy jihatdan qat'iy tartibga solingan bo'lib, u fuqarolarning shaxsiy daxlsizlik huquqini himoya qiluvchi aniq, tugallangan asoslar ro'yxatiga tayanadi va xodimlarning ma'lumotlar bilan ishlashi bo'yicha qat'iy individual javobgarlik mexanizmini o'rnatadi.

5. PPX xodimlarining huquq, majburiyat va javobgarligi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunning aniq normalari bilan tartibga solinib, majburlov vositalarini qo'llashning qonuniylik va proporsionallik tamoyillarini ta'minlaydi.

6. Hududiy resurslarni taqsimlash tumanlararo PPX bo'linmalarini tashkil etishning aniq miqdoriy me'yorlari (aholi zichligi va kriminogen vaziyatga bog'liq holda) asosida amalga oshiriladi, bu esa tizimli yondashuvning amaliy tatbig'idir.

7. Milliy institutsional tajribani birinchi bobda ko'rib chiqilgan xorijiy tajriba bilan qiyoslash shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston islohotlari umumjahon tendensiyalari (hududiy-mahalliy yondashuv, raqamlashtirish, funksional ixtisoslashuv) bilan mos keladi, biroq ularni ilmiy-statistik asoslash va institutsional chuqurlashtirish borasida sezilarli salohiyat mavjud.

8. Jamoat tartibini saqlash tizimining moliyaviy-institutsional ta'minoti (jamg'arma tizimi) hozirgi kunda ham faol takomillashtirish jarayonida bo'lib, bu institutsional barqarorlikka erishish yo'lidagi davom etayotgan jarayonni aks ettiradi.